



13.00.00  
13.00.01  
13.00.02  
13.00.03  
13.00.04  
13.00.05

13.00.06  
13.00.07  
13.00.08  
13.00.09  
07.00.00  
19.00.00

01.00.00  
02.00.00  
03.00.00  
09.00.00  
10.00.00  
11.00.00

№5/2025

# M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga  
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,  
14-may, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Qirg'izboyev Abdug'afvor Karimjonovich – Tarix fanlari doktori, professor

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Ibragimov X.I.** – pedagogika fanlari doktori, akademik  
**Shoumarov G'.B.** – psixologiya fanlari doktori, akademik  
**Umarova H.O'** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri  
**Jamoldinova O.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Sharipov Sh.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Shermuhhammadov B.Sh.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Ma'murov B.B.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Madraximova F.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Kalonov M.B.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Nabiyev D.X.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Qo'ldoshev Q. M.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Ikramxanova F.I.** – filologiya fanlari doktori, professor  
**Ismagilova F.S.** – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
**Stoyuxina N.Yu.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
**Magauova A.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
**Rejep O'zyurek** – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
**Wookyu Cha** – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
**Polonnikov A.A.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
**Baybayeva M.X.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Muxsiyeva A.T.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Aliyev B.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**G'afurov D. O.** – falsafa fanlari doktori (Phd)  
**Somurodov R.T.** – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Mirzayeva F.O.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Jalilova S.X.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Bafayev M.M.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Usmonova D.I.** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti  
**Saifnazarov I.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori, professor  
**Nematov Sh.E.** – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
**Tillashayxova X.A.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Yuldasheva F.I.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Yuldasheva D.B.** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
**Tangriyev A. T.** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
**Ashurov R. R.** – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)  
**Panjyev M. A.** – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
**Xudayberganov N. A.** – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo’yicha  
ro’yxatdan o’tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                           |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Nutq o'qitirish mashg'ulotlarida maqol va rivoyatlardan foydalanish texnologiyasi .....                                                                                                   | 12 |
| <i>Azimova Nodira Xikmatovna</i>                                                                                                                                                          |    |
| Matematikada o'tkaziladigan sinfdan tashqari viktorina, matematik ertalik va matematik musobaqalarni tashkil etish.....                                                                   | 15 |
| <i>Azizova Dilnoz Yo'ldashevna</i>                                                                                                                                                        |    |
| Adabiy ta'limda fanlararo integratsiyani rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'rni .....                                                                                               | 19 |
| <i>Hasanova Bahora Isa qizi</i>                                                                                                                                                           |    |
| Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi kognitiv-pragmatik mashqlar turlari va mazmuni.....                                                                                            | 22 |
| <i>Jahonova Nargiza Yunus qizi</i>                                                                                                                                                        |    |
| Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanidan uyga vazifalarni tashkil etishda QUIZ testlardan foydalanish .....                                                                         | 28 |
| <i>Jamolova Nodirabegim Jobir qizi</i>                                                                                                                                                    |    |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning dolzarbligi .....                                                                                     | 32 |
| <i>Mazgarova Durdona Shuxrat qizi, Mirzakamolova Komola Xojiakbar qizi</i>                                                                                                                |    |
| Understanding and Using Articles in English: A Practical Approach.....                                                                                                                    | 35 |
| <i>Mustafeyeva Nigina Shuhrat kizi</i>                                                                                                                                                    |    |
| Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.....                                                  | 40 |
| <i>Nosirova Dilfuza</i>                                                                                                                                                                   |    |
| Ona tili va o'qish savodxonligi fanining boshlang'ich ta'limdagi o'rni va ahamiyati .....                                                                                                 | 45 |
| <i>Otamurodova Mahfirat Husan qizi</i>                                                                                                                                                    |    |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi qaror va qonunlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuv ..... | 49 |
| <i>Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Po'latova Mahfuza To'liqin qizi</i>                                                                                                                   |    |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kasbiy etikasi va madaniy salohiyatini shakllantirish omillari...52                                                                          |    |
| <i>Qodirova Fotima Rashidovna</i>                                                                                                                                                         |    |
| Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalarining qiyosiy tahlili ....55                                                                      |    |
| <i>Shokirova Madinabonu Shomurod qizi</i>                                                                                                                                                 |    |
| Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda mental arifmetikaning o'rni.....59                                                                                                           |    |
| <i>Sulaymonova Nigora Olimjon qizi</i>                                                                                                                                                    |    |
| Boshlang'ich ta'limda ta'lim samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish mexanizmlari (Singapur ta'lim tizimi misolida).....63                                           |    |
| <i>Taniqulova O'g'lioy Fahriddin qizi</i>                                                                                                                                                 |    |
| SWOT texnologiyasi asosida talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish modeli.....66                                                                                       |    |
| <i>Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi</i>                                                                                                                                             |    |
| Механизмы формирования характера трудолюбия в младшем школьном возрасте .....                                                                                                             | 69 |
| <i>Зияев Амаль Толибович</i>                                                                                                                                                              |    |
| Современные методы обучения иностранному языку в начальных классах .....                                                                                                                  | 72 |
| <i>Косимова Шахризода Бахромжон кизи, Рузметова Хилола Абдушариповна</i>                                                                                                                  |    |
| Ислам в духовных исканиях льва толстого: уважение великого писателя к религии и пророку .....                                                                                             | 75 |
| <i>Мамасодикова Махзуна Жалол кизи</i>                                                                                                                                                    |    |
| Проблемы и особенности перевода с узбекского языка на русский: анализ ошибок и пути решения .....                                                                                         | 78 |
| <i>Холмуродова Дилдора Хусниддиновна</i>                                                                                                                                                  |    |
| Развитие русского языка в современном мире .....                                                                                                                                          | 80 |
| <i>Чернова Татьяна Алексеевна, Темиров Руслан Расул угли, Хасанов Сайхунбек Килич угли</i>                                                                                                |    |
| Ona tili ta'limida muqobil javobli testlardan foydalanishning afzalliklari.....                                                                                                           | 83 |
| <i>Komilova Lola Nasilloevna</i>                                                                                                                                                          |    |



# SWOT TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

UDK: 37.026.1

Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
stajor-tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar ilmiy-tadqiqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishda SWOT tahliliga asoslangan ta'lim modelining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganib chiqildi. Maqolada turli adabiyotlar o'rganib chiqildi va ular bo'yicha fikr hamda xulosalar keltirildi.

**Kalit so'zlar:** SWOT texnologiyasi, tadqiqotchilik, innovatsion ta'lim, ilmiy izlanish, yondashuv, strategik rejalashtirish.

**Abstract:** This scientific article explores the theoretical and practical aspects of an educational model based on SWOT analysis in developing research skills among students in higher education institutions. Various literature sources were reviewed, and relevant opinions and conclusions were presented in the article.

**Key words:** SWOT technology, research, innovative education, scientific inquiry, approach, strategic planning.

**Аннотация:** В данной научной статье изучаются теоретические и практические аспекты образовательной модели, основанной на SWOT-анализе, для развития исследовательских навыков у студентов высших учебных заведений. Проведен анализ различных литературных источников, представлены мнения и выводы.

**Ключевые слова:** технология SWOT, исследование, инновационное образование, научный поиск, подход, стратегическое планирование.

## KIRISH

Oliy ta'lim tizimida talabalarning ilmiy izlanish olib borish qobiliyatini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. Globallashuv jarayonida jamiyatning barcha sohalarida innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish talabi kuchayib bormoqda. Ta'lim tizimi ham ushbu jarayonlarning ajralmas qismi sifatida zamonaviy talablarni qondira oladigan, mustaqil fikrlaydigan va ilmiy tadqiqotchilik salohiyatiga ega kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish va ularning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalari talabalarning o'z kasbiy sohalarida ilmiy izlanish olib borish, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topish qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun nazariy asoslarni aniqlash va innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega <sup>[1]</sup>. Talabalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishda va ularga to'g'ri yo'naltirish berishda SWOT tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, SWOT texnologiyasiga ta'rif berib o'tamiz. SWOT tahlili – strategik rejalashtirish usuli bo'lib, u tashkilotning ichki va tashqi muhit omillarini aniqlashda, ilmiy faoliyatni tashkil etishda, oliy ta'limda dars jarayonlarini samarali tashkil etishda hamda bir qator ishlab chiqarish kabi sohalarida qo'llaniladi. Bu rejalashtirish usuli quyidagi to'rt bo'limgan iborat: kuchli jihatlar (strengths), zaif jihatlar (weaknesses), imkoniyatlar (opportunities), tahdidlar (threats) <sup>[7]</sup>.

1-jadval: SWOT tahlili

|              | Ijobiy ta'sir                                                                                                         | Salbiy ta'sir                                                                              |
|--------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ichki muhit  | S tendensiyalari (loyiha yoki jamoaning sanoatdagi boshqalardan ustunlik beruvchi xususiyatlari)                      | Zaifliklar(loyihani zaiflashtiradigan xususiyatlar)                                        |
| Tashqi muhit | Tashqi muhit imkoniyatlar (maqsadga erishish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ta'minlaydigan tashqi ehtimoliy omillar) | T tahdidlar (maqsadga erishishni qiyinlashtirishi mumkin bo'lgan tashqi ehtimoliy omillar) |



SWOT qisqartmasi birinchi marta 1963-yilda Garvard biznes siyosati konferensiyasida professor Kennet Endryu tomonidan kiritilgan <sup>[2]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu texnologiyaning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini juda ko'plab olimlar o'rganib chiqqan va dalillar keltirgan. S. Brown "Teaching and Learning in Higher Education" kitobida SWOT tahlilidan foydalanish orqali o'quv mashg'ulotlarida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, izlanuvchida ilmiy maqola tuzish hamda dalillar bilan ish yuritish qobiliyatini oshirishini ta'kidlab o'tgan <sup>[3]</sup>.

Jumladan, Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori Javlonbek Hamrayev ham o'zining ilmiy maqolasida: "Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalariga informatika fanini o'qitish jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash quyidagicha olib borildi: ma'ruzada 'SWOT tahlil' metodidan foydalanish natijasida talabalarni loyihalash va modellashtirish kompetensiyalari shakllantirildi; laboratoriyada 'SINDIKAT' metodidan foydalanish natijasida talabalarining algoritmash va dasturlash kompetensiyalari shakllantirildi; mustaqil ta'limda 'SMART' interfaol ta'lim metodidan foydalanish natijasida talabalarining texnologik, axborot va avtomatlashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishga erishildi", – deb ta'kidlagan <sup>[4]</sup>. Ushbu adabiyotlar tahlili mavjud nazariy va empirik tadqiqotlar asosida SWOT texnologiyasining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi va talabalar ilmiy salohiyatini oshirishdagi o'rnini yoritganligini dalillaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

SWOT tahlili asosida talabalarda tadqiqotchilikni rivojlantirishning modeli ishlab chiqildi. Tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish modeli deganda, tadqiqotchilarning o'z sohalari bo'yicha ma'lum bir obyektida ilmiy izlanish olib borishi, ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv tushuniladi. Bu model quyidagi asosiy komponentlardan iborat: nazariy bilim – nazariy bilim muayyan maqsadga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan bilim darajasi bo'lib, uning asosiy shakllari: ilmiy muammo, gipoteza, nazariya, tamoyillar, qonunlar, kategoriyalar, paradigmalarni hisoblanadi <sup>[6]</sup>; amaliy ko'nikmalar – insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir.

Ko'nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko'nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko'nikmalar esa bilim olishga, uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi <sup>[9]</sup>. Ilmiy tadqiqot faoliyatida esa izlanuvchi o'zlashtirgan nazariy bilimlarini tajribada sinab ko'rishi va amaliyotda qaysi darajada mos kelganligini aniqlashi hamda tajriba davomida olimlar ilgari surgan nazariy fikrlar, qarashlar qay darajada qo'l kelganligini tahlil etishi ilmiy tadqiqot faoliyatining istiqboli uchun samarali ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy va tanqidiy fikrlash – ijodiy fikrlash qobiliyati deganda talabaning fikrlashi ma'lum doiradan tashqariga chiqib ketishi natijasida yangi ma'lumotlarga ega bo'lishi tushuniladi <sup>[5]</sup>. Ijodiy fikrlashni SWOT tahlilning imkoniyatlar va kuchli tomonlar qismiga kiritish mumkin, chunki talaba o'z sohasidan kelib chiqqan holda ilmiy mavzusiga ijodiy yondashishi bir qancha imkoniyatlarni yaratadi.

Masalan: yangi metodika, mavjud muammolarga innovatsion yechim va yangi strategiyalar ishlab chiqib, ularni amalda qo'llash kabi. Tanqidiy fikrlash esa fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi <sup>[6]</sup>. Bu fikrlash turini SWOT tahlil asosida zaif tomonlar va tahdidlar qismiga kiritish mumkin. Masalan, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda ilmiy ish olib borish, bu bo'yicha maqolalar yozish, ma'lumot to'plash va tahlil qilish bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lmasliklari mumkin. Bundan tashqari, plagiat, grammatik xatolar va ilmiy uslubda yozish bo'yicha qator muammolar kuzatiladi. Tanqidiy fikrlash yordamida esa izlanuvchi o'zining zaif tomonlarini aniqlashi, ilmiy sohaga oid trening, seminar va akademik yozuv bo'yicha bilimni ilmiy rahbari ko'magida oshirib borishi zarurligini anglab yetadi. Texnologik kompetensiya – bu texnologiyalarni tushunish, ulardan innovatsion va ilmiy faoliyatda foydalanish qobiliyatidir.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida esa ilmiy ma'lumotlar bazalari (Google Scholar, Natlib.uz, Web of Science, Scopus), matn tahlili vositalari (Quillbot, Grammar Checker – xorijiy matnlar uchun), bibliografik dasturlar, sun'iy intellekt (ChatGPT, Gemini, Monica) va antiplagiat (antiplagiat.uz, ChatGPTzero) kabi dasturlardan foydalanish tushuniladi. Agar tadqiqotchi talaba shu kabi dasturlardan foydalanishni bilsa, ilmiy maqola, dissertatsiya yozish jarayoni bir qancha osonlashadi va antiplagiatga yo'l qo'ymaslikda foyda beradi. Yuqoridagilarga asoslangan holda 2024-yilning may oyida Andijon davlat chet tillari institutida viloyat oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziquvchi talabalar aniqlanib, ularga onlayn holatda vebinar o'tkazildi. Loyihaning birinchi darsi "Ilmiy tadqiqotga kirish" darsi bo'ldi va unda talabalar qiziqqan sohalari bo'yicha ilmiy savodxonlik darajasi aniqlandi. Ilmiy maqola va tezis bo'yicha tushunchalar o'rgatildi hamda kichik so'rovnomma o'tkazilib baholandi. Shundan so'ng loyiha mentorlari bilan birgalikda SWOT texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan navbatdagi

vebinar mashg'ulotlari va seminarlar tashkil etildi. O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarga SWOT texnologiyasi tushuntirilib, u yordamida tadqiqotchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashni o'rgandi. Shundan so'ng ilmiy maqola yozish uchun zarur sohasiga doir adabiyotlarni topish bo'yicha ishonchli manbalar tavsiya etildi, maqola va dissertatsiyada iqtibos keltirish qoidalarini o'rgatildi va talabalar bu adabiyotlardan mualliflik huquqiga zarar bermagan holda ilmiy ishlarida foydalanishni o'rgandilar. Bundan tashqari, maqola turlari, uning tarkibiy qismlari bo'lgan annotatsiya, kalit so'zlar, kirish qismi, asosiy qismi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar qismi haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqot davomida SWOT tahlili asosida o'tkazilgan vebinar mashg'ulotlari qatnashchilarida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga doir sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Dastlab talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlandi. O'tkazilgan so'rovnoma va savol-javoblar natijasida, talabalar ilk bosqichda o'rtacha 45% darajada tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega bo'lgan bo'lsa, 1 oylik mashg'ulotlardan so'ng ularning ilmiy salohiyati 75% gacha oshdi. Bu bilim darajasining 30% ga oshganligini anglatadi va talabalar ushbu jarayonda tanqidiy fikrlash, ilmiy maqola yozish, unda turli tadqiqot metodlaridan samarali foydalanish hamda mavjud adabiyotlarni tahlil qilishni o'rgandilar. Bundan tashqari, maqola turlari, uning qismlari, plagiat va to'g'ri iqtibos keltirish usullarini ham o'zlashtirdilar. Shuningdek, talabalarda analitik fikrlash qobiliyati ham sezilarli darajada oshdi.

So'rovnoma va intervyular natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar SWOT tahlili orqali o'zlarining mavjud bilimlarini tanqidiy tahlil qilishni o'rgandilar. Tajriba guruhida analitik fikrlash ko'rsatkichlari o'rtacha 50% dan 80% gacha oshgani, ya'ni 30% ga o'sganligi aniqlandi. Mazkur eksperiment davomida talabalar qiziqqan sohalari bo'yicha sifatli, ilmiy standartlarga mos va plagiatdan xoli maqola hamda tezislarni yozib, nashr ettirdilar. Bu esa, o'z navbatida, SWOT texnologiyasi samarali ekanligini va uning yordamida kutilgan natijaga erishish ancha osonlashganligini ko'rsatadi. Ilmiy-tadqiqot davomida olingan natijalar, shuningdek adabiyotlar tahlili asosida SWOT tahlilining ta'lim jarayonidagi integratsiyalashuvi va uning talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishdagi o'rni o'rganib chiqilgan bo'lib, unda quyidagi jihatlarga alohida urg'u berilgan: talabalarda ilmiy bilimni oshirish; nazariy va amaliy yondashuvning integratsiyasi; cheklovlar va muammolar; kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbollarni; plagiatga yo'l qo'ymaslik; ishonchli nashrlarda ilmiy ishni chop etish va ko'rsatmalar; talabalarda prezentizm, ya'ni tadqiqotlarini taqdimot holatida namoyon etish usullarini o'rgatish masalasi yuzasidan keng bahs-munozaralar olib borilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot ishi SWOT texnologiyasining talabalar tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni turli nazariy asoslar, empirik eksperiment hamda adabiyotlar tahlili asosida isbotladi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, izlanuvchilar SWOT texnologiyasi yordamida o'zlaridagi kuchli hamda zaif nuqtalarni aniqlaydilar. Shundan so'ng analitik fikrlash va strategik rejalashtirish orqali ilmiy salohiyatni sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga erishiladi. Yuqoridagilarga asoslangan holda bir qator tavsiyalar mavjud: SWOT texnologiyasini oliy ta'lim muassasalarida joriy etish va uni ilmiy-tadqiqot faoliyatida bevosita qo'llash zarur. Bundan tashqari, ilmiy salohiyatni yanada takomillashtirish uchun talabalar shaxsiy o'sishi va ilmiy faoliyatini doimiy kuzatib borish maqsadida individual rejalashtirish tizimlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rakhimova, Sh. N. (2024). Scientific Theoretical Foundations for the Formation of Research Competence of Students. Inter Education & Global Study, (10), 188–194. (In Uzbek).
2. Загородников А. Н. (2013). Управление общественными связями в бизнесе. Учебник. Москва: Крокс. (гл. 3: "SWOT-анализ: сущность, цель, содержание").
3. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management. Pearson Education.
4. Hamrayev, J. (2024). Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilariga informatika o'qitishda tarmoq texnologiyalaridan foydalanish. Ta'lim, fan va innovatsiya jurnali, 2-son, 125–126-betlar.
5. Hamrakulov, A. K., & Karimova, D. A. (2023). Talabalarining ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Qurilish va ta'lim ilmiy jurnali, №1(3), 71–72-betlar.
6. Glaser, E. M. Defining Critical Thinking. The International Center for the Assessment of Higher Order Thinking (ICAT, US) / Critical Thinking Community.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari





# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.